



ONA TILI DARSALARIDA OT SO‘Z TURKUMINING O‘QITILISHI, NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YONDASHUV

Pirmatova Mahfuza

Namangan Davlat Texnika Universiteti 2-sون akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida ot so‘z turkumining o‘qitilishiga doir nazariy qarashlar, tilshunoslikdagi ilmiy asoslar va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ot so‘z turkumini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar, didaktik vositalardan foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida bu mavzuni o‘zlashtirish darajasi, o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladigan topshiriq va mashqlar, hamda o‘qituvchining roli haqida fikr yuritiladi. Maqola o‘qituvchilar, metodistlar va pedagogika sohasida tadqiqot olib boruvchilar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: ona tili, ot so‘z turkumi, so‘z turkumlari, tilshunoslik, nazariy asoslar, amaliy yondashuv, metodika, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, o‘qitish usullari.

Аннотация. В статье анализируются теоретические взгляды, научные основы лингвистики и практические подходы к преподаванию именной фразеологии на уроках родного языка. Также рассматриваются современные педагогические технологии, методические подходы и способы использования дидактических средств при обучении именной фразеологии. Обсуждаются уровень освоения данной темы на начальном и среднем уровнях образования, задания и упражнения, закрепляющие знания учащихся, а также роль учителя. Статья полезна учителям, методистам и исследователям в области педагогики.



Ключевые слова: родной язык, именной фразеологизм, фразеология, лингвистика, теоретические основы, практический подход, методика, интерактивные методы, педагогические технологии, методы обучения

Abstract. This article analyzes theoretical views, scientific foundations in linguistics and practical approaches to teaching noun phraseology in native language classes. It also considers modern pedagogical technologies, methodological approaches, and ways to use didactic tools in teaching noun phraseology. The level of mastery of this topic at the primary and secondary levels of education, tasks and exercises that serve to consolidate students' knowledge, and the role of the teacher are discussed. The article is useful for teachers, methodologists, and researchers in the field of pedagogy.

Keywords: native language, noun phraseology, phraseology, linguistics, theoretical foundations, practical approach, methodology, interactive methods, pedagogical technologies, teaching methods

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sohasida til o‘rganishga bo‘lgan e’tibor ortib borayotgan bir davrda, ona tili darslarining mazmunan boy, didaktik jihatdan asosli tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so‘z turkumlari ichida eng ko‘p qo‘llaniladigan, leksik-semantik jihatdan keng qamrovga ega bo‘lgan ot so‘z turkumini o‘rgatish o‘quvchilarning til bilimi va fikrlash salohiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ot so‘z turkumining o‘qitilishi nafaqat grammatik bilimlarni o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirish, ifodali fikrlashga o‘rgatish kabi vazifalarni ham bajaradi. Mazkur maqolada ot so‘z turkumining o‘rganilishi bilan bog‘liq nazariy asoslar, amaliy yondashuvlar va o‘quv jarayonidagi samaradorlikni oshirish usullari keng muhokama qilinadi.

Ona tili darslarining maqsadi o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, nutqiy malakasini o‘sirish, ijodiy fikrlashga yo‘naltirish bilan bir qatorda ona tilimizni soqligini saqlashdir



Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari, xususan, ot so‘z turkumiga oid nazariy va metodik izlanishlar uzoq yillardan buyon olib borilib kelinmoqda. A. Madvaliyev, M. Tohirov, G. Rahmatullaeva, N. Mahmudov, Sh. Rahmatullayev kabi olimlarning ishlarida ot so‘z turkumining leksik-semantik xususiyatlari, grammatik kategoriyalari chuqur o‘rganilgan.

Masalan, N.Mahmudovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida ot so‘z turkumining morfologik belgilari, son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalari ilmiy asosda bayon etilgan. A. Madvaliyev esa o‘zining metodik ishlanmalarida bu bilimlarni maktab darslarida qanday o‘rgatish mumkinligi borasida amaliy tavsiyalar bergen.

R.Ishmuhamedov, A.Nisanbaeva, B.To‘xliev, K.Usmonova kabi tilshunoslari o‘zlarining tadqiqot ishlarida, monografiyalar va maqolalarida fikr yuritganlar. Ona tili darslarida so‘z turkumlari mavzularini, xususan ot so‘z turkumini o‘qitishda grammatik topshiriqlar, ko‘rsatmali vositalar, tarqatma materiallardan foydalanish orqali o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalar hosil qilish, didaktik vositalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, unga xos xususiyatlarni tahlil qilish samarali natijalar beradi.

Shuningdek, 5–9-sinflar uchun yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda (masalan, M. Jo‘rayev va boshqalar tomonidan tuzilgan darsliklar) ot so‘z turkumini o‘rganish uchun zarur nazariy materiallar, jadval va mashqlar berilgan.

Metodologik jihatdan, maqolada quyidagi yondashuvlar asosida tahlil olib boriladi:

- Tahliliy-metodik yondashuv – mavjud darslik va metodik qo‘llanmalarining tahlili;
- Eksperimental-uslubiy yondashuv – amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasini aniqlash;
- Taqqosloviy-lingvistik yondashuv – ot so‘z turkumini boshqa so‘z turkumlari bilan farqlash asosida o‘rganish;



- Interfaol metodlar tahlili – jamoaviy ish, rolli o‘yinlar, klaster, insert, konseptual xarita kabi metodlar samaradorligini aniqlash.

Natija va muhokamalar.

Tadqiqot jarayonida olib borilgan amaliy kuzatuv va tahlillar quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi:

1. O‘quvchilarning qiziqishi: Interfaol metodlardan foydalanilganda o‘quvchilarda ot so‘z turkumiga nisbatan qiziqish ortadi. An’anaviy tushuntirishdan ko‘ra, mantiqiy tahlil va jamoaviy ishlarga asoslangan yondashuvlar samaraliroq.
2. O‘zlashtirish darajasi: Otning grammatik kategoriylarini (son, egalik, kelishik) farqlashda o‘quvchilar ko‘proq amaliy misollar orqali tushuncha hosil qilgan. Nazariy bilimlar faqatgina mashqlar bilan mustahkamlanganda samarali bo‘lgan.
3. Metodik qo‘llanmalarning roli: Yaxshi ishlab chiqilgan dars ishlanmalari va topshiriqlar o‘quvchilar bilimini tizimlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo ayrim darsliklarda misol va mashqlar yetarli darajada bosqichma-bosqichlikka ega emasligi aniqlangan.
4. O‘qituvchining metodik tayyorgarligi: Dars samaradorligi o‘qituvchining metodik yondashuvi, interfaol usullardan foydalanish darajasi va individual yondashuviga kuchli bog‘liq ekanligi kuzatildi.

Xulosa.

Ot so‘z turkumining ona tili darslarida o‘qitilishi nafaqat grammatik bilimlarni shakllantirish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ifodali nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Ot so‘z turkumini o‘rganishda nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashqlar muhim ahamiyatga ega;



- Zamonaviy, interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishi oshadi va mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishadi;
- Darslik va metodik qo‘llanmalarining sifatli, bosqichma-bosqichlikka asoslangan bo‘lishi zarur;
- O‘qituvchilar metodik jihatdan yaxshi tayyorlangan bo‘lishi, yangi texnologiyalarni faol qo‘llay olishi kerak.

Kelajakda bu boradagi darslik va metodik qo‘llanmalarini yanada takomillashtirish, tajriba asosida sinovdan o‘tkazilgan dars ishlanmalarini joriy qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

So‘z turkumlari bo‘yicha tahlil, so‘z tarkibi bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlil kabi, morfologik tahlilning bir ko‘rinishi bo‘lib, u maktab dasturidagi “So‘z turkumlari” mavzusining masalalarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Rasulov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi, 2006. 45–67 betlar.
2. Tohirov M. Ona tili darslarini o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 89–112 betlar.
3. Madvaliyev A. Ona tili darslarida lingvistik tahlil asoslari. Toshkent: Fan, 1997. – 60–75 betlar.
4. Jo‘rayev M., Mahmudova Z. va boshqalar. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022. 36–49 betlar.
5. Rahmatullaeva G. Ona tili darslarini interfaol metodlar asosida o‘qitish. Andijon: Ilm ziyo, 2019. 102–110 betlar.
6. Abdullayeva D. Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2020. 70–85 betlar.
7. Yo‘ldoshev A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan, 2005. 112–126. betlar